

FEMINIZM – AYOLLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHMI YOXUD MATRIARXAT DAVRINI QO'LLASH?

Qo'chqorova Nigina Shukrilla qizi

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti

1-kurs V potok 1-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17033619>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda va bir necha yillar davomida dolzarb muammolardan biri bo'lib kelayotgan feminizm – ya'ni ayollarning jamiyatning barcha sohalarida huquqlari teng bo'lishi haqidagi qarashlarning o'zbek mentalitetiga qanchalik mosligi, shuningdek, ayolning jamiyatdagi muvaqqat o'rni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: feminizm, erkinlik, kamsitish, feminizm bosqichlari, himoya qilish, huquq, o'rin.

IS FEMINISM ABOUT PROTECTING WOMEN'S RIGHTS OR SUPPORTING A MATRIARCHAL ERA?

Abstract. This article discusses the relevance of feminism – that is, views on women having equal rights in all spheres of society – to the Uzbek mentality, a problem that has been relevant today and for several years. It also reflects on the temporary role of women in society.

Keywords: feminism, freedom, discrimination, stages of feminism, protection, right, role.

ФЕМИНИЗМ – ЭТО ЗАЩИТА ПРАВ ЖЕНЩИН ИЛИ ПОДДЕРЖКА ЭПОХИ МАТРИАРХАТА?

Аннотация. В данной статье рассматривается актуальная на сегодняшний день и на протяжении нескольких лет проблема феминизма – то есть, насколько взгляды на равные права женщин во всех сферах общества соответствуют узбекскому менталитету, а также размышляется о временной роли женщины в обществе.

Ключевые слова: феминизм, свобода, дискриминация, этапы феминизма, защита, право, роль.

Kirish. Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish, ayollarni jamiyatning barcha sohalarida qo'llab quvvatlash, ularga hech qanday cheklovlarisiz munosabatda bo'lish haqida ko'plab bir biriga zid keluvchi fikrlar mavjud. Biroq bu kabi qarashlar kecha yoki bir necha yil avval emas, balki asrlar daomida insoniyatni o'ylantirmoqda. Albatta bugungi kunda nafaqat O'zbekistonda, deyarli butun dunyoda ayollar huquqlari teng ta'minlangan. Biroq shunga qaramay, orada ba'zi ayollarning sog'ligi, xavfsizligini o'ylab qilingan cheklovlarga qarshilik bildirilmiqda. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlardagi "chiroyli hayot"ni haqiqat bilan alamahtirib qo'ygan yosh qizlar, ayollar hayotidagi ozroq yetishmovchilik yoki qiyinchilikni, uzunroq kiyish kerakligini, ortiqcha ijtimoiy tarmqlarga kirish yaxshi emasigi qanonasi yoki turmush o'rtog'i tomonidan aytilganda huquqimni cheklayaptilar deb "dod" solishadi. Biz esa, ushbu maqolada feminizm aslida nima, u qayerdan kelib chiqqan, uning salbiy va ijobiy tomonlarini tahlil qilib o'tamiz.

Feminizm (lotincha: femina-ayol) — jamiyatning barcha sohalarida ayollar huquqlari harakatini tushuntiruvchi atama bo'lib, uning maqsadi ayollarga nisbatan kamsitishni bartaraf etishdir.¹

Asrlar davomida huquq va erkinliklari turli darajada cheklangan ayollar endi o'z haqlarini kuch(ayrim davrladra qon) bilan olishga urindi. Bu harakat keyinchalik alohida g'oya, ta'limot sifatida butun dunyoga yoyildi. Har bir davrning o'z qadriyatlari, o'z odamlari va albatta o'z muammosi bor. Ha davr ayollarining umumiy bir da'vosi bo'lgani bilan, o'ziga xos muammosi ham bor. Shu bois ham feminizmni bir qancha bosqichlarga bo'lib o'rganish lozim. Sababi turli zamondagi feministlar turfa haq-huquqlar uchun kurashgan. Dunyoda feminizmni uch bosqichga bo'lishadi. Ularni biz shartli ravishda birinchi, ikkinchi, uchinchi bosqich feminizmi deb ataymiz.

Birinchi bosqich. Birinchi bosqich feminizmi 19-asr oxiri va 1960-yillar orasida harakatga keldi. 1789-yildagi Buyuk fransuz inqilobi ortidan ayollar huquqlari uchun kurash ham o'rtaga chiqdi. Miloddan asrlardagi Afinadan tortib, to 19-asrdagi Fransiya inson huquqlari deganda faqat erkaklar haq-huquqlari tushunilgan. Afinada aholi 3 guruhga ajratilgan: ozod afinaliklar, yarim-ozod kishilar va qullar. Ayollar esa hech bir toifaga mansub emasdi, tabiiyki saylovlarda ham ovoz berish huquqidan mahrum etilgan, faqat ijtimoiy faqat ijtimoiy vazifalar yuklatilgan holda yashardilar. Ularni sotib olish, sotib yuborish va qul qilish mumkin edi. "Insonlar tabiatan ozod va teng tug'iladi", kabi shiorlar ostida erkin saylovlar uchun kurashayotgan Fransiya ham bunday huquqlari faqat erkaklarga tegishli ekanligini iddao qilinardi. 1791-yildan boshlab Fransiya ayollar huquqlari uchun kurash boshlandi. "Ayolga dorga chiqish "huquqi" berilgani kabi kursi(mansab)ga chiqish haqqi ham berilishi lozimdir", - degan edi ayollar tengligi uchun kurashgan ilk fransuz feministlaridan biri Olimpiya de Guj. Unga nisbatan "axloqsiz, yomon ona, Fransiyaning siyosiy birligi va jamiyat xalovatini buzmoqchi" va hattoki, "aqldan ozgan" degan ayblovlar qo'yildi. Bu kabi tuxmatlar natijasida u 45 yoshida o'lim jazosiga hukm qilindi. "Chunki Olimpiya de Guj erkak bo'lishga harakat qildi, u tabiatga, qolaversa, Xudoga qarshi chiqdi. Sababi uni ayol qilib tabiat yaratgan va uning yagona vazifasi bola tug'ish hamda yaxshi ona bo'lish. Buni erkaklar emas, tabiat belgilagan" singari qarashlar 19-asr insonlariga shu qadar chuqur singgan ediki, ayollar tomonidan ozgina qarshilik ham misli ko'rilmagan buzg'unchilik sifatida qabul qilinardi.

Birinchi bosqichda feministlar eng tamal haq-huquqlar – ta'lim olish, saylovlarda ishtirok etish va mulkka egalik qilish kabi huquqlari uchun qonli kurashdi. Bu harakatning ilk natijalari Yangi Zellandiyada ko'zga tashlandi. 1893-yilda Yangi Zellandiyada ayollar saylovda ovoz berish huquqini qo'lga kiritdi. Bu huquqni eng kech qo'lga kiritgan mamlakat Saudiya Arabistoni bo'lib, 2015-yildan ayollarga ovoz berish huquqi berildi.

Ikkinchi bosqich. Ikkinchi bosqich feminizmi 1960-1990-yillarni o'z ichiga oladi. Ayollar eng birlamchi huquqlarga ega bo'lgach, o'rtaga boshqa maqsadlar ham chiqa boshladi. Endilikda ayollarning oz' tanasiga o'zlari egalik qilishi, ya'ni tug'ishni nazorat qilish, abort, ishlash, ijtimoiy faollik kabi masalalar dolzarblashib bordi. Qolaversa, ikkinchi bosqichda ayollarning erkaklar tomonidan zulmga uchrashi, oiladagi kamsitilishlar va zo'rlashlarga qarshi keskin qarshiliklar boshlandi. Bunday harakatlar markazida mashhur feminist Simon de Bovuar turar edi. U o'zining bir qancha asarlarida feminizm g'oyalarini tushuntirishga harakat

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Feminizm_tarixi

qilgan. Mashhur “Ikkinchi jins” nomli 3 tomli kitobi esa jamiyatda bir portlash kabi qabul qilindi. Sababi, mana shu kitobida u bir obyektga mavjudlik v mohiyat nuqtai nazaridan qarab, “Ayol tug’ilmaydi, ayol shakllantiriladi”, degan qarashni izohlagan edi. ya’ni biz tushunuvchi ayollik tug’ma yoki Xudo tomonidan berilgan o’zgarmas voqealik emas, bu shunchaki jamiyat tomonidan yaratilgan ijtimoiy konstrukt ekanligini tushuntirishga harakat qilgan.

Uchinchi bosqich. Feminizmning uchinchi bosqichi 1990-yildan 2008-yilgacha dweb aytilgan. Ammo, bu baxsli mavzu, ayrimlar bu davrni ayni kunda ham davom etayotganini ta’kidlaydi. Bu bosqichda ayollar endi ish sharoitlari, oylik maosh kabi masalalarni asosiy planga olib chiqdi. Sababi bir xil ish uchun erkaklarga ayollardan yuqori haq to’lanar, xususi korxonalar imkon qadar erkaklarni ishga qabul qilishdan manfaatdor edi. Ayollarga beriladigan tug’ruq ta’tili ularning ishchanlik kayfiyatiga ta’sir ko’rsatishidan ish beruvchilar manmnun emasliklari aniq, albatta. Endi, ayollar ham oila, ham karyerani saqlab qolish uchun qator qiyinchiliklarga duch kela boshladi. Uchinchi bosqich to’lqini mana shu va boshqa muammolar ta’sirida yuzaga keldi.²

Feminizm jinsga ko’ra, kamsitishlarga qarshi kurashuvchi, Xususan, ayollarning haq-huquqlarni himoyalashni ko’zda tutuvchi dunyoqarash, nuqtai nazardir. Bu ayollar uchun teng siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquq va imkoniyatlarni o’rnatish, himoya qilishga qaratilgan harakatdir. Kelib chiqishi va poydevori ayol erkinligini himoyalashga qaratilgan bu dunyoqarash hozirgi kunga kelib O’zbekistonda ham o’ziga xos ko’rinishda namoyon bo’lmoqda.

Sharqona feminizm - bu ayollarning ta’lim olishga, erkin kasb tanlash va ishlashga bo’lgan huquqlari, oila qurish masalasida tanlash imkoniyatiga ega bo’lishga, jamiyat tomonidan xotin-qizlarga nisbatan bosimni kamaytirishga, asrlar davomida shakllanib, jamiyat ongiga singib ketgan gender rollardan xoli bo’lishga va ularni bugungi kuntalablaridan kelib chiqqan holda o’zgartirishga, o’z shaxsiy huquq va erkinliklarini hurmat qilishni talab qilishga, zo’ravonlik va taaziyqlardan xoli bo’lishga chorlovchi dunyoqarashdir. Sharqona feminizm g’azrbd targ’ib qilinadigan feminizm g’oyalaridan farq qiladi, ayol va erkakning butunlay tenglik g’oyasini utopiya ekanini qabul qilgan holda, ayollarning o’zbek jamiyatidagi o’rnini yuksaltirishga qaratilgan harakat sifatida baholanishi maqsadga muvofiq deb qaraladi.³

To’g’ridan to’g’ri feminizm nomi ostidagi harakatlar O’zbekistonda nisbatan keyinroq yuzaga chiqqan bo’lsada, ammo ayollar huquqi uchun kurash ancha oldin boshlangan edi. jadidlar qizlar ta’limi masalalarini ko’tarib chiqqanidan so’ng ko’p o’tmay “Hujum” harakati boshlandi. Bu harakat maqsadlaridan biri paranjiga, ayollar erksizligiga qarshi isyon edi.⁴

Shu o’rinda shoir Cho’lponning quyidagi she’riy parchasi beixtiyor yodimizga tushadi:

Yer asiralari

Yer asiralari, yer asiralari!

Oltin bilakuzuklar, yoqut marjonlar,

Sadaf donalarmi tasallilari,

Qo’rg’onmi, devormi nasibalari,

Kun sanab o’tarmi oy-yillari,

Tilga kelmaslarmi shu qadar jonlar?

² <https://uz.hook.report/2022/10/feminism/> (Feministlar maqsadi erkak bo’lish emas, inson bo’lish) Dilbar Xaydarova

³ <https://www.uzanalytics.com/jamiyat/7887/> (O’zbekona feminizm – u qanday bo’lishi mumkin?) Kamola Aliyeva

⁴ <https://uz.hook.report/2022/10/feminism/>

Yer asiralari, go'zal tonglarning
Sochidan ko'ngilga quvvat olingiz!
O'zingiz tirishib, bevijsonlarning
Ko'ngliga erk uchun ilhom solingiz!
Yer asiralari, yer asralari,
Yosh to'kib yig'lashmi nasibalari⁵?

Albatta, bu kabi she'rlar 19-asrga xos bo'lsada, bugungi kunda ham hanuz shunga o'xshash holatlar afsuski yo'q emas.

Bugungi kundagi o'zbek feministlari asosan, 2-bosqichdagi huquqlari uchun kurashmoqda. Sababi, o'zbek jamiyatida hali 2-to'lqindagi haq-huquqlar to'liq ta'minlangan emas. Bunga ko'proqjamiyat tomonidan qo'yilgan cheklovlar, "o'zbekchilik qayerda qoldi?", "odamlar nima deydi?", kabi qarashlarga asoslangan dunyoqarash sababchi.

Davlat darajasida esa sobiq va hozirgi Prezident qizlari gender tengligi, ayollar huquqlari himoychilari bo'lib gavdalanadi.⁶

Bundan tashqari qator qonunchilikda, hattoki O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddada ham gender tengligi belgilab o'tilgan. O'RQ-562-son 02.09.2019. Xotin qizlar va erkaklar uchun teng huquq imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonun hamda yana bir qancha qonunlarda keltirib o'tilgan. Shuningdek, bugungi kunda ayollar huquqlarini himoya qilish uchun bir qancha ijtimoiy harakatlar amalga oshirilgan. Jumladan, xotin-qizlar dafari, himoya orderi, yoshlar dafatari va hokazolar. Shu bilan birga qonunchilikning barcha sohalarida ayollar huquqlariga alohida e'tibor berilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, ko'p asrlardan buyon dolzarb muammo bo'lib kelayotgan ayollar huquqlari masalasi - feminizm bugungi kunda ham garchi ancha yechimlar berilgan bo'lsada, hamon dolzarbligicha qolmoqda. Ayniqsa bu holat qo'shni davlatlar, asosan inson huquqlari kam ta'minlangan davlatlarda kuzatilmoqda. O'zbek oilalarida ham ayol-qizlarga nisbatan zo'ravonlik hamda tazyiqlar hanuz uchraydi. Davlatning asosiy vazifasi inson huquqlarini ta'minlash bo'lganligi sababli ayol-qizlarning huquq va manfaatlari davlat himoyasidadir.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik manbasi lex.uz sayti
2. Ko'klam ruhi. Cho'lpon
3. <https://uz.hook.report/2022/10/feminism/>
4. <https://www.uzanalytics.com/jamiyat/7887/>
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Feminizm_tarixi
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
7. "O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashning dolzarb masalalari: Joriy holat, vazifalar va istiqbol" 15.09.2022. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.

⁵ Ko'klam ruhi. Cho'lpon. T.: 2019. Yoshlar nashriyot uyi. 119-b.

⁶ <https://uz.hook.report/2022/10/feminism/>